

KICHIK MAKATAB YOSHLI O'QUVCHILARDA KREATIV FIKRLASHNI
RIVOJLANTIRISH USULLARI

Sh.Usmonov

FarDU psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori(PhD),

G.Abbosova

FarDU 2-kurs talabasi.

Annotatsiya. *Kichik makatab yoshli o'quvchilarda kreativ fikrlashni rivojlanirish usullari va tushunchalari atroflicha yoritilgan bo'lib, ushbu to'plangan ma'lumotlar asosida xulosa va tavsiyalar berilgan.*

Kalit so'zlar. *Kreativlik, intellekt, ta'lant, iqtidor, qobiliyat.*

Аннотация. *Подробно освещены методы и концепции развития творческого мышления у младших школьников, на основе собранных данных даны выводы и рекомендации.*

Ключевые слова. *Креативность, интеллект, талант, талант, способности.*

Abstract. *Methods and concepts of developing creative thinking in junior high school students are covered in detail, conclusions and recommendations are given based on the collected data.*

Key words. *Creativity, intelligence, talent, talent, ability.*

Har qanday jamiyatning iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va madaniy barqarorligi o'sha jamiyat fuqarolarining ma`naviy-axloqiy, aqliy intellektualligi va kreativ fikrlashiga hamda kasbiy salohiyati darajasiga bog`liq. Shunday ekan, ma`naviy-axloqiy va kasbiy jihatdan to`laqonli shakllanmagan shaxsda o`z vatani, millati, egallagan kasb-kori bilan faxrlanish tuyg`usi sayoz bo`ladi. Bugungi kunda kelajak avlodlarimiz bo`lgan yoshlarga alohida e'tibor berilib, ularning har tomonlama rivojlangan komil shaxs hamda raqobatbardosh kadrlar sifatida shakllanishi uchun barcha shart-sharoitlar yaratilmoqda. Intelektual yuqori salohiyatga ega va kreativ fikrlaydigan yoshlar esa jamiyatning rivojlanishiga o'zining bilimi bilan katta xissa qo'sha oladi. Shu nuqtai nazardan intilektual yoshlarni tarbiyalash bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir.

Kreativlikni o'rganish bo'yicha Rossiyada A.M.Matyushkin, A.V.Petrovskiy, M.G.Yaroshevskiy, V.N. Drujinin kabi olimlar ish olib borgan bo'lsalar, O'zbekistonda B.R.Qodirov, E.G'ozievlarini tilga olib o'tish mumkin.

Mavzuga doir adabiyotlarni o'rganish jarayonida psixologiyada intellekt va kreativlikni aloqasini tushuntiruvchi 3 ta nazariya mavjudligini uchratish mumkin. Birinchi nazariya vakillari D.Veksler, G.Ayzenk, L.Termen, R.Stenberglar bo'lib, ular intellekt va kreativlikni oliy darajadagi insoniy qobiliyatlarning birligi deb qaraganlar. Ya'ni intellekt kreativlikning yuqori bosqichi sifatida baholaganlar. Yuqori darajadagi intellekt- yuqori darajadagi qobiliyatning asosisini tashkil qiladi. Quyi ko'rsatgichdagi intellekt esa - quyi darajadagi intellektni yuzaga keltiradi deb ta'riflaganlar. G.Ayzenk esa kreativlikni qobiliyatning o'ziga xos ko'rinishi sifatida ta'riflagan. Ya'ni kreativlik intellektning yuqori bo'lishi bilan belgilanishini ta'kidlab o'tganlar.

Ikkinci nazariyada esa, intellekt va kreativlikning bir biriga bog'liq emasligini boshqa bir tadqiqotlarda o'rganishgan. Kreativlik- bu insonni hayotga moslashishi emas, balki uni o'zgartirishidir. Kreativlikning asosiy omili bu insonning dezadaptatsiyasi, ya'ni uni atrof olam va ijtimoiy muhitga moslasha olmasligida deb qaraganlar. Ba'zi olimlar shaxsning kreativlik xususiyatini tashqi olam va insonlardan yolg'izlanish deya ta'rif berishgan. Aynan real olamga nisbatan dezadaptatsiyasi mavjud bo'lgan, moslasha olmagan inson o'zidagi yolg'izlikni engib o'tish uchun ijod qilish va yangilik yaratishni boshlar ekan. A.Adlerning fikricha, insondagi kreativlik o'zida mavjud bo'lgan noto'liqlik kompleksini to'ldirish vositasi deb bilgan. Empirik tadqiqotlarda ko'rsatilishicha, ijodkor qobiliyatli bolalar shaxsiy va emotsiyal sohada jiddiy muammolarga duch kelishadi. Tadqiqotlarda bunday bolalarning mакtabda erishayotgan natijalari ularning imkoniyatlaridan past chiqanini kuzatishimiz mumkin. Dj.Gilvord kreativlik va intellektni qarama-qarshi qo'ygan bo'lib, o'z nazariyasini konvergent hamda divergent tafakkur sifatida ajratgan. Konvergent tafakkur masalani echishda mavjud barcha vositalarni tahlil qilib, ulardan yagona maqbulini tanlashdir. Konvergent tafakkur intellekt asosida quriladi. Divergent tafakkur- masalani echishning turli variantlarini yaratishdan iborat tafakkur turi sifatida tushuntiradi. U divergent tafakkur- kreativlik asosida qurilishini ta'kidlaydi. Bundan kelib chiqadiki intellekt va kreativlik umumiy ko'rinishdagi ikki xil qobiliyatlar bo'lib, ularni ma'lumotlarni qayta ishlash jarayoni bilan bog'lash mumkin xolos. Kreativlik insonda mavjud ma'lumotlarni qayta ishlab chiqarish va ularning cheksiz yangi modelini yaratishdir. Intellekt esa o'sha ma'lumotni real amaliyotda qo'llashga va atrof muhitga moslashishga yordam beradigan murakkab jarayon.

Uchinichi nazariya egalari intellekt va kreativlik o'zaro uzviy bog'langan ikki xil faktor deb qarashgan. Shaxsni orientirlashtirgan bu psixologiya vakillari A.Maslau va boshqalar ijodiy qobiliyatni tan olishmagan. Ijodiy faollik shaxsda qobiliyatga qaraganda, ba'zi shaxsiy xususiyatlarni (qiziqish, tavakkalchilik) shakllantiradi. Lekin bu faollikning namoyon bo'lishi uchun shaxsda yuqori darajadagi intellektual qobiliyat mavjud bo'lishi lozim. Ularning fikricha, quyi intellektga ega bo'lgan kishi hech qanday kreativlikka ega bo'lmaydi deb qarashgan.

Kreativlikka quydagicha ta'rif berish mumkin, ya'ni fikrlashning mustaqilligi va boshqalarnikiga o'xshamagan tarzada fikrlashi yoki nostandardligi ham biror tushunchaga qaytarilmas misollar keltirishdir.

Bolalarda kreativ fikrlashni rivojlantirish uchun ijtimoiy psixologik trenninglarning ahamiyati kattadir. Jumladan, "Bu nima uchun foydalaniladi?" o'yini misol qilib keltirish mumkin. Ushbu o'yinda sinfdagi bolalarga biror predmet berib(masalan kaptok), bu predmetni nima uchun foydalanish mumkinligi so'raladi. Bolalar esa ketma-ketlikda misollar keltirib o'tadilar. Boshlovchi bolalarni qo'llab quvvatlab turishi va yangi fikrlar chiqishi uchun sharoit yaratishi lozim. Shunda bolalarda birqancha bir-birini fikrlarini takrorlamagan holda nostandard fikrlashlarni uchratish mumkin. Bu esa bolada kreativ fikrlashini rivojlanishiga yordam beradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Usmonov, S., & Ahadjonova, S. (2023). YOSHLARNI OILAVIY HAYOTGA TAYYORLASHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARINI EMPIRIK O'RGANISH. Евразийский журнал академических исследований, 3(12 Part 2), 243-248.
2. Usmonov, S. A., & Meliboyev, D. N. (2023). O'SMIRLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLARI. O'ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI, 2(25), 156-161.
3. Axmadjonovich, U. S., & Mirzamirovna, M. C. (2022). SOCIAL-PSYCHOLOGICAL FEATURES OF FORMING POSITIVE ATTITUDES IN STUDENTS OF JUNIOR SCHOOL AGE. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 341-344.
4. Usmanov, S. A., & Barno, S. (2023). PSYCHODIAGNOSTICS OF STRESS AND AGGRESSIVE CONDITIONS. JOURNAL OF CHILD PSYCHOLOGY AND PSYCHIATRY, 6(5), 25-30.
5. Axmadjonovich, U. S., & Ilhomjon o'g'li, N. I. (2022). THE INFLUENCE OF MASS MEDIA ON HUMAN PSYCHOLOGY. American Journal of Interdisciplinary Research and Development, 11, 345-348.
6. Axmadjonovich, U. S., & Murodjon To'lqinjon o'g', A. (2022). PRACTICAL OPPORTUNITIES FOR THE DEVELOPMENT OF CREATIVE THINKING IN STUDENTS. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal, 10(7), 180-183.
7. Axmadjonovich, U. S. (2022). AN EMPIRICAL STUDY OF THE EFFECT OF MENTAL ABILITIES ON STUDENT ACHIEVEMENT. American Journal Of Social Sciences And Humanity Research, 2(12), 125-132.
8. Axmadjonovich, U. S. Khakimova Ugilkhon Nasimhon qizi.(2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(6), 65-67.
9. Usmanov, S. A., & Khakimova, M. P. (2023). SOCIAL PSYCHOLOGICAL FACTORS OF THE INFLUENCE OF THE PSYCHOLOGICAL HEALTH OF TEACHERS ON THE EDUCATIONAL PROCESS. SO 'NGI ILMIY TADQIQOTLAR NAZARIYASI, 6(12), 481-486.
10. Axmadjonovich, U. S. (2022). Empirical analysis of the impact of sociopsychological factors on mastery indicators in students. European Journal of Humanities and Educational Advancements, 3(2), 5-11.
11. Усмонов, Ш. А. (2022). ТАЛАБАЛАРДАГИ АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИ ЕТАКЧИ СИГНАЛЛАР ТИЗИМИГА БОҒЛИҚЛИГИНИ ЎРГАНИЛИШИ: Усмонов Шерзод Ахмаджонович, Фарона давлат университети, Психология кафедраси ўқитувчиси. Образование и инновационные исследования международный научно-методический журнал, (7), 328-333.

12. Axmadjonovich, U. S. (2022, December). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGIC FACTORS INFLUENCING STUDENTS' LEARNING ABILITY. In Conference Zone (pp. 767-774).
13. Усмонов, Ш. А., Закирова, М. С., & Нуриддинов, Р. С. Ў. (2021). ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. Современное образование (Узбекистан), (9 (106)), 12-16.
14. Усмонов, Ш. А. (2021). Закирова Мухаббат Сабировна, Нуриддинов Расулжон Самитжон ўғли. ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ//СОВРЕМЕННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ (УЗБЕКИСТАН), 9, 106.
15. Usmonov, S. A., & Xoldaraliyeva, A. A. Q. (2021). Talaba yoshlarni tolerantlik ruhida tarbiyalashning psixologik tamoillari. Academic research in educational sciences, 2(5), 73-77.
16. Усмонов, Ш. А., & Закирова, М. С. (2021). Нуриддинов РСЎ ИЛК ЎСПИРИНЛИК ДАВРИДА АҚЛИЙ ҚОБИЛИЯТЛАРНИНГ ЭМПИРИК ТАҲЛИЛИ. Современное образование (Узбекистан).-2021, 9(106), 12-16.
17. Usmanov, S., & Absalomov, E. U. (2020). IMPROVEMENT OF TOLERANT CULTURE IN THE FAMILY. Theoretical & Applied Science, (1), 674-676.
18. Usmonov, S. A. (2020). Problems and solutions with working ability children. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 177-179).
19. Usmonov, S. A. (2020). Opportunities with working ability children in education. In Психологическое здоровье населения как важный фактор обеспечения процветания общества (pp. 298-300).
20. Усмонов, Ш. А. (2015). Развитие толерантной культуры у учащейся молодёжи. In Актуальные аспекты современной науки (pp. 9-12).
21. Усмонов, Ш. (2023). МИЛЛАТИМИЗ ХАРАКТЕР ХУСУСИЯТИДА ТОЛЕРАНТЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ТАРКИБ ТОПИШИ. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(6 Part 2), 21-24.
22. Усмонов, Ш. (2023). БОҒЧА ЁШИДАГИ БОЛАЛАРДА МУЛОҚОТ МАДАНИЯТИНИ ШАКЛАНТИРИШНИНГ ПСИХОЛОГИК ШАРТ-ШАРОИТЛАРИ. INNOVATIVE DEVELOPMENTS AND RESEARCH IN EDUCATION, 2(19), 1-6.
23. Usmonov, S., & Hakimova, O. (2023). О 'SMIR QIZLAR XULQ ATVORI SHAKLLANISHINING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 189-194.
24. Axmadjonovich, U. S. (2022). SOCIO-PSYCHOLOGICAL BASIS FOR THE MANIFESTATION OF AGGRESSIVE BEHAVIOR IN ADOLESCENTS.
25. Usmonov, A. (2021). БОЛА ТАРБИЯСИДА ДОНОЛАР УГИТИ ВА^ ИКМАТЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШ. Boshlang'ich ta'linda innovatsiyalar, 2(Архив№ 3).
26. Усмонов, Ш. А. (2015). Развитие толерантной культуры у учащейся молодёжи. In Актуальные аспекты современной науки (pp. 9-12).

27. Sherzod AxmadjonovichUsmonov, D.H.Meliboyev //O'SMIRLARDA AXBOROT XAVFSIZLIGINI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-PSIXOLOGIK IMKONIYATLAR// O'ZBEKİSTONDAFANLARAROINNOVATSIYALARVA
ILMIYTADQIQOTLARJURNALI. 25-SON. 20.12.2023. 156-161.

28. Usmanov, S., & Abdulhamidova, F. (2023). DEVELOPMENT OF CREATIVE ABILITY IN STUDENTS WITH SPECIAL EDUCATION NEEDS. INTERNATIONAL BULLETIN OF APPLIED SCIENCE AND TECHNOLOGY (T. 3, Выпуск 12, сс. 415–420).

29. Axmadjonovich, U. S., & Mirzaolim o'g'li, M. J. (2022, December). PEDAGOGICAL AND PSYCHOLOGICAL FACTORS AFFECTING THE EDUCATIONAL ACTIVITY OF STUDENTS. In Conference Zone (pp. 775-780).